

JADIDCHILIK YO‘LIDA MA’RIFATPARVARLAR HAYOTI.

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi

*ilmiy xodimi. **Rahimova M***



Munavvar qori Abdurashidxonov

(1878-1931)

Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi, XX asr o‘zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilaridan biri, adib, shoir, murabbiy, muharrir, ma’rifatparvar, jamoat arbobi 1878-yilda Toshkent shahrining Shayx Xovand Tohur dahasi Darxon mahallasida mudarris oilasida tug‘ilgan.

Otasi Abdurashidxon Sotiboldixon o‘g‘li mudarris, onasi Xosiyat otin Xonxo‘ja Shorahimxo‘ja mudarris qizi otinoyi bo‘lgan.

Munavvar qori oilada uchinchi o‘g‘il bo‘lib, katta akalari A‘zamxon

(1872-1919) va Muslimxon (1875-1954) lar muallim bo‘lgan.

Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li otasidan yosh yetim qolgani bois, dastlabki ta’lim-tarbiyani onasidan oladi. So‘ng o‘z davrining mashhur o‘qituvchisi Usmon domladan ilmi qiroat va tajvidni o‘rganib, hofizi Qur‘on bo‘ladi. 1885-1890-yillarda Buxorodagi Mirarab madrasasida tahsil oladi, ammo tahsilni oxiriga yetkazmay, Toshkentga qaytib keladi va Darxon masjidida imomlik vazifasini boshlaydi.

U XIX asrning oxiridan boshlab jadidchilik harakatlarida faol ishtirok eta boshlaydi. 1901-yilda o‘z hovlisida, keyinchalik Toshkentning turli dahalarida jadid maktablarini ochadi. 1904-yildan ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotga aralasha boshlaydi. 1906-yildan “O‘rta Osiyoning umrguzorligi, taraqqiy”, “Taraqqiy” gazetalarining adabiy xodimi, shu yili noshir va muharrir sifatida “Xurshid” gazetasini tashkil etadi. “Shuhrat” (1907), “Tujjor” (1907), “Osiyo” (1908) gazetalarini g‘oyaviy boshqarib, adabiy xodim vazifasini bajaradi. So‘ng “Sadoyi Turkiston” (1914-1915) gazetasida mas‘ul muharrir muovini, “Al-isloh” jurnali (1915-1917) da muharrir, “Najot” va “Kengash” (1917) gazetalarida mas‘ul muharrir bo‘lgan.

Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li 1909-yili Toshkentda “Jamiyati xayriya” uyushmasini tuzib, “Turon” nomli jamiyatni ochadi. 1918-yilning aprelida Turkiston xalq dorilfununining asoschisi va rektori etib tayinlanadi. Uning sa’y-harakati bilan 1918-yilning 2-iyunida dorilmuallimin ish boshlaydi. U 1918-yilda “Turk o‘chog‘i” ilmiy-ma’rifiy jamiyatini tashkil qiladi. Munavvar qori 1920-yillarda o‘zbek yurtining mustaqilligi uchun kurash vazifasini o‘z oldiga qo‘ygan “Milliy ittihad” va “Milliy istiqlol” yashirin tashkilotlariga rahbarlik qiladi.

Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘lining “Adibi avval” (1907), “Adib us-soniy” (1907), “Usuli hisob”, “Tarixi qavm turk”, “Tajvid” (1911), “Havoyiji diniya”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islomiya” (1912), “Yer yuzi” (1916-1917), 4 qismdan iborat “O‘zbekcha til saboqligi” (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga, 1925-1926, 4-qismi musodara qilingan) darsliklari bir necha marta chop etiladi. U ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham shug‘ullanib, ixcham hikoyalari, talaygina she‘rlari o‘sha davrdagi matbuot va o‘zi tuzgan hamda yozgan darsliklarga

kiritiladi. U o‘tkir publitsist adib sifatida inson va jamiyat, din va dindorlik, axloq, mustamlakachilik va xurriyat, ziyolilik, uyushma, tashkilot, davlat idorasi masalalariga alohida e’tibor qaratadi.

Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li o‘z faoliyati davomida pedagogik, matbuotchilik, muharrirlik, adiblik bilan cheklanmay, jiddiy siyosiy faoliyat ham olib borgan, shu sababli mustamlaka hukumati tomonidan bir necha bor hibsi qilingan. Yevropa savdo-sanoat, ilm-fanini o‘rganishga chaqirib, ma’naviy qoloqlikni qoralab, vijdon erkinligini inkor etmagan dunyoviy demokratik davlat tarafdori bo‘lgan. Shu sababli Qo‘qon shahrida tashkil topgan Turkiston muxtoriyatini (1917) qo‘llab-quvvatlagan. Umr bo‘yi o‘z vatanini mustaqil ko‘rishni istagan. 1920-yillarning o‘rtalarida milliy ziyolilarni ta’qib qilish kuchayishi natijasida Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li hamma lavozimlardan chetlashtiriladi. Biroq, hatto qatag‘on ham Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘lini istiqloq g‘oyalaridan qaytara olmadi. U 1929-yilning 6-noyabrida qamoqqa olinib, Moskva shahridagi Butirka qamoqxonasida qatl qilinadi va Vagankova qabristonida dafn etiladi. 1991-yilda rasman reabilitatsiya qilingan.



Abdulla Avloniy

(1878-1934)

Abdulla Avloniy mashhur o‘zbek ma’rifatparvari, shoiri va jamoat arbobi 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda hunarmand oilasida tug‘ilgan.

U eski maktabda savod chiqarib, madrasada tahsil oladi. Oiladagi moddiy qiyinchiliklar sabab bolaligidan odamlar eshigida mehnat qiladi, g‘isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik, binokorlik kabi kasblar bilan shug‘ullanadi va “imoratchi usta”, degan nom oladi.

Abdulla Avloniyning she’rlari 15 yoshidan boshlab matbuotda ko‘rina boshlaydi. U 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadid maktabini, 1909 yilda “Jamiyati xayriya” uyushmasini tashkil etadi.

1905-1917-yillarda matbuotdagi qizg‘in faoliyati, ko‘plab publitsistik maqolalari bilan “bir yoqdan milliy islohot uchun mafkura hozirlag‘on, ikkinchi yoqdan el orasiga o‘zgarish tuxmini sochg‘on” ham (Abdulla Avloniy bo‘ldi. Avloniy o‘zi nashr etgan “Shuhrat” (1907) nomli gazetasi faoliyatini shunday baholagan edi.

U Turkistonda birinchilardan bo‘lib maktabga geografiya, kimyo, handasa, fizika fanlarining kiritilishiga ta’sir ko‘rsatib, ta’limni real turmush bilan bog‘lashga intiladi. Bir dars bilan boshqasi o‘rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o‘tishdagi imtihonni joriy etadi. Ta’lim tizimining dunyoviy yo‘nalishini kuchaytirishga alohida e’tibor beradi. Uning “Birinchi muallim” (“Muallimi avval”, 1909), “Ikkinchi muallim” (“Muallimi soniy”, 1912) nomli darsliklari, “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913), “Gulistoni maktab” (1917), “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” (1909-1916, 6 qism) kabi qo‘llanmalari maktablarda o‘qitilgan.

Avloniy “Turon” (1917) gazetasiga “Yashasin xalq jumhuriyati” degan shiorni tanladi. “Turon” nomli teatr to‘garagini tashkil etib, iqtidorli yoshlarni to‘playdi, ayrim rollarni ijro etishda o‘zi ham qatnashadi.

Abdulla Avloniyning Afg‘onistonda elchi bo‘ldi, turli o‘quv yurtlarida dars berdi. U Hijron, Nobil, Indamas, Shuhrat, Surayyo, Shapaloq, Chol, Chegiboy taxalluslari bilan faoliyat yuritgan.

Abdulla Avloniy 1934-yilning 24-avgustida Toshkentda vafot etadi.



Tavallo - To‘lagan Xo‘jamiyorov

(1883-1937)

To‘lagan Xo‘jamiyorov - Tavallo XX asr boshlari Toshkent adabiy muhitining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri bo‘lib, 1882-yili Toshkentning Ko‘kcha dahasida ziyoli oilada tug‘ilgan.

Avval eski maktabda, so‘ng Beklarbegi madrasasida tahsil olgan. Beklarbegi madrasasi bu davrlarda Toshkent adabiy hayotining markazlaridan biri edi. Tavallo shu yerda Karimbek Kamiy, Miskin, Xislat, Yusuf Saryomiy kabi zamonasining atoqli shoirlari bilan tanishadi. Ayniqsa, Yusuf Saryomiyni o‘zining piri, ustoz sifatida e‘tirof etadi. “Tavallo” deb taxallus olishi ham mazkur ustoz da‘vati bilan bo‘ladi.

Tavallo o‘zi yashab turgan voqelik mohiyatini, Turkistonning chor istibdodi ostida huquqsiz, zabun bir qismatga mahkum ekanligini anglagan pallada, ya‘ni 1905-

yillardan boshlab jadidchilik harakatlariga qo‘shiladi. Bu harakatning barcha muhim jabhalarida ishtirok etadi. Xususan, milliy matbuotimizning ilk namunalari hisoblangan “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” gazetalarida uning she‘r va maqolalari muntazam chiqib turadi.

1914-yilning 30-avgustida Munavvarqori, Avloniy, M.Podshoxo‘jayev, Husanxo‘ja Dadaxo‘ja o‘g‘li (yozuvchi Said Ahmadning otasi), Saidabdullo Saidkarim o‘g‘li Saidazimboyev, Komilbek Norbekov (jami 12 kishi) lar bilan birgalikda Toshkentda “Nashriyot” shirkatini tuzib, kitob chiqarishni yo‘lga qo‘yadilar. 1915-yilda esa Avloniy tashabbusi bilan tuzilgan “Turon” jamiyatida faoliyat ko‘rsata boshlaydi.

1913-yilning o‘rtalarida Toshkentda birinchi milliy teatr truppasi faoliyat boshlaydi. 1914-yilning 27-fevralida “Kolizey” teatr binosida namoyish etilgan “Padarkush” spektakli shu truppaning ilk milliy teatr tomoshasi edi. Tavallo bu harakatning ham tashkilotchilari va jonkuyarlari qatorida ko‘rinadi. Ana shu voqeaga bag‘ishlab maxsus she‘rlar yozadi.

1918-1919-yillarda Toshkentning dastlab Eski shahar, so‘ng Yangi shahar ijroiya qo‘mitalarining a‘zosi bo‘lgan. Keyinchalik turli xo‘jalik ishlarida ishlagan.

Tavallo 1916-yili o‘zining matbuotda e‘lon qilingan va bosilmagan she‘rlarini to‘plab, “Ravnaq ul-islom” nomi bilan chop ettiradi. To‘plamda yetmishga yaqin she‘r jamlangan bo‘lib, ularning deyarli barchasi ma‘rifatparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan.

Tavallo 1917-yil oktyabr to‘ntarishidan so‘ng turli idoralarda ishladi. “Mushtum” jurnalida hajviy she‘rlar bilan faol ishtirok etdi. Tavallo 1937-yil 14-avgustda “Turon”, “Aksilinqilobiy”, “Milliy ittihad” va boshqa tashkilotlarning a‘zosi bo‘lganlikda, “she‘rlarida millatchilik g‘oyalarini ilgari surgan”likda ayblanib, qamoqqa olinadi. 1937-yilning 10-noyabrida NKVD qoshidagi uchlik hukmi bilan otib tashlanadi. 1968-yilning 18-oktyabrida oqlanadi. Tavallo qabrining qayerdaligi noma‘lum.

Qoʻllanilgan adabiyotlar

1. Munavvar Qori Abdurashidxonov. *Hayoti va faoliyati*. Toshkent, 1995.
2. Abdulla Avloniy. *Hayoti, ijodi va merosi*. Toshkent, 2002.
3. Tavallo – Toʻlagan Xoʻjamyorov. *Jadidchilik va milliy madaniyat*. Toshkent, 2010.
4. Karimov A. *Oʻzbekiston jadidchilik harakati tarixi*. Toshkent, 1989.